**SHARTNOMA № 2**
*(Loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chiqish)*

**Yuqori Chirchiq tumani** **"16" __05__ 2022 yil**

**Yuqori Chirchiq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** (keyingi oʻrinlarda Buyurtmachi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi rahbar **Yakubxodjaev S.S** bir tomondan va **"EXCELLENT ROAD PROJECT" MCHJ** (keyingi oʻrinlarda Bajaruvchi) nomidan Ustav asosida ish yurituvchi rahbari Tillaxodjaev.SH.N ikkinchi tomondan, byudjet mablagʻlari hisobidan _ (keyinchalik-ob'ekt) ishlarini bajarishga doir amaldagi Oʻzbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari toʻgʻrisidagi"gi 684-sonli qonuniga asosan xarid.uzex.uz maxsus axborot portali orqali (**Lot raqami 80597** ) e'lon qilingan va Yuqori Chirchiq tuman obodonlashtirish boshqarmasi xarid komissiyasining 2022 yil 12-maydagi №2-sonli bayonnomasiga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

## Shartnoma predmeti va muddati.

1.1. Bajaruvchi Yuqori Chichiq tumani Toshtugizoq mfy Bogiston va Barkamol koʻchalarini asfaltlash uchun Smeta va Ekspirtiza xujjatlarini tayyorlash uchun (keyinchalik-ob'ekt) boʻyicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini, Buyurtmachi esa uni qabul qilib olish majburiyatini oladi.

1.2. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlarini Oʻzbekiston Respublikasida belgilangan huquq va qonun talablariga asosan amalga oshiriladi.

1.3. Bajaruvchi shartnoma boʻyicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqadi, shu jumladan uchinchi shaxsni yollagan xolda belgilangan tartibda loyiha-smeta xujjatlarini davlat ekspertizasidan oʻtkazadi.

1.4. Bajaruvchi loyiha-smeta hujjatlarini Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlar asosida shartnoma va Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi Respublika Gʻaznachiligida roʻyxatdan oʻtgan kundan boshlab shartnomaning 2-ilovasi "Bajarish va moliyalashtirish jadvali"da belgilangan muddatlarda bajaradi.

1.5. Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari boʻyicha davlat va zarur boʻlganda boshqa tegishli ekspertiza xulosasini olgandan soʻng 10 kun mobaynida 3 (uch) nusxada mazkur loyiha va qidiruv ishlari xujjatlarini Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

1.6. Ish jarayonida kelishilgan asosiy loyihaviy echimlarni buyurtmachiga topshiriladi.

1.7. Ishlar paralel ravishda amalga oshiriladi hamda loyiha ishlari bosqichma-bosqich bajariladi va topshiriladi.

## 2. Shartnoma bahosi va toʻlovlar qoidalari.

2.1. Shartnomaning bahosi shartnoma taraflarining kelishuvi (1-ilova)ga asosan **QQS bilan 18800000 (On sakkiz million sakkiz ming )** soʻmni tashkil etadi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi "Bajarish va moliyalashtirish jadvali"ga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika Gʻaznachiligida roʻyxatdan oʻtgandan soʻng 5 kun mobaynida shartnoma bahosining 30 foiz miqdorida avans toʻlovini amalga oshiradi.

2.3. Shartnoma boʻyicha qolgan mablagʻ, Bajaruvchi loyiha-smeta xujjatlari ishlari davlat va zarur boʻlganda boshqa tegishli ekspertizasi xulosasini olib, Buyurtmachiga taqdim etgandan soʻng, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, 15 kun mobaynida dastlab toʻlangan avans mablagʻi (shartnoma bahosining 30 foizi miqdorida) ushlab qolinib qolgan 70% mablag tulab beriladi.

2.4. Shartnomaning bahosi uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta koʻrib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini koʻpaytirishga engib boʻlmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab boʻlganda;
- ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan oʻzgartirilganda.

Dastlabki hisoblangan smeta hujjatlariga ekspertiza xulosasi olingandan soʻng, loyiha-smeta hujjatlari bahosi (mahalliy byudjetdan moliyalashtirilganda Toshkent viloyati tuman xokimiyatlari moliya boshqarmalari) tomonidan tasdiqlangan manzilli roʻyxatga asosan Buyurtmachi va Bajaruvchi roziligi bilan zaruratga koʻra ushbu shartnomaga qoʻshimcha kelishuv imzolanadi.

## 3. Tomonlar majburiyatlari.

3.1. Buyurtmachi barcha ishlar bajarilib boʻlingandan keyin belgilangan narxning hammasini Bajaruvchi toʻlashi yoki ishlarining ayrim bosqichlari tugatilganidan keyin narxning tegishli kismini toʻlashi, tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qoʻzgʻatilgan davo yuzasidan ishda qatnashishiga Bajaruvchini jalb qilishi shart.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan, oʻrnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan birlamchi ma'lumotlarni (nuqsonlar qaydnomasi yoki ijro hujjatlari, pudrat tashkilotining oʻrtacha ish haqi, ishlatilgan mashinalar, mexanizmlar va texnik koʻrsatkichlarga ega transport vositalari, ishlatilgan mashinalar,

mexanizmlar va transport vositalarining ishlash xarajatlari ko'rsatkichlari, pudratchining boshqa xarajatlari, loyiha-smeta hujjatlarining belgilangan hujjatlaridagi boshqa xarajatlari.

Tegishli idoralar va tashkilotlar bilan kelishilgan xolda) taqdim qiladi.

3.3. Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi ma'lumotlarni 10 (o'n) ish kuni moboynida o'rganib chiqishi hamda berilgan ma'lumotlarda kamchiliklar aniqlansa Buyurtmachiga ma'lum qilishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Bajaruvchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan birlamchi malumotlarda aniqlangan kamchiliklarni, 10 (o'n) ish kuni muddat ichida Buyurtmachiga ma'lum qilmasa, ma'lumotlar qabul qilingan deb xisoblanadi va bunday xolat Bajaruvchi ishlarini bajarish muddatini o'zgartirishga asos bo'la olmaydi.

3.4. Bajaruvchi loyiha-smeta ishlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta xujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektni ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Agar loyiha-smeta xujjatlari yordamchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa kamchiliklar aniqlangan taqdirda yordamchi tashkilot ishlab chiqilgan loyiha-smeta xujjatlari uchun to'liq javob beradi va Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta xujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va shunga muvofiq zarur qo'shimcha ishlarni bajarishi shart.

3.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov o'z vaqtida o'tkazilmagan xolda yoki dastlabki ma'lumotlarni taqdim qilish kechiktirilganda ishlarni tugallash muddati to'lov yoxud taqdim kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.6. Loyihaning asosiy echimlarini buyurtmachi bilan birgalikda tegishli idoralar va tashkilotlar bilan kelishiladi.

3.7. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan xaqi kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

3.8. Bajaruvchi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa, Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

## 4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.

4.1. Loyiha-smeta xujjatlari ishlari bajarilishining alohida bosqichi va shartnoma bo'yicha belgilangan jami ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan loyihalash uchun topshiriqda ko'zda tutilgan hujjatlar to'plamini topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish - qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.1- bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini olgandan so'ng 10 (o'n) kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 (o'n) kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar loyiha-smeta xujjatlari ishlarini bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun mobaynida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart.

4.5. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga loyiha-smeta xujjatlari bo'yicha xulosa uchun murojat qilishi mumkin

## .5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash.

5.0. Loyiha-smeta xujjatlari ishlarining bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## Taraflarning korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ma'suliyati.

6.1. Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.

6.2. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar(harakatsizlik)ga yo'l qo'ymaydilar.

6.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar:

- pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;

- tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash;

- pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish.

6.4. Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar. jumladan:

- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatli vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.

6.5. Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korrupsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.

6.6. Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinganda shuningdek, shartnomaning 5.1-bandida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir yetilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlari yoki qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

## 7. Nizolarni xal etish.

7.1. SHartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan nizolarni taraflar o'zaro muzokara yo'li bilan hal etadi. Muzokara natijasida kelishuvga kelinmagan taqdirda nizolar taraflar tomonidan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi berish va ishni sudda ko'rib chiqilishi natijasida hal qilinadi.

## 8. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish.

8.1. Mazkur shartnomaga qo'shimcha bitim ko'rinishidagi o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda qilingan hamda tomonlar (yoki tomonlar nomidan vakillar) imzolagan holdagina G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin yuridik kuchga ega bo'ladi.

8.2. SHartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. SHartnoma o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi yozma shaklda amalga oshiriladi. SHartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki shartnomaning shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

8.3. Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

## 9. Fors-major.

9.1. Fors-major vaziyatlari paydo bo'lishi munosabati bilan mazkur shartnomadagi tomonlar majburiyatlari butunlay bajarilmasa yoki qisman bajarilsa, majburiyatlarni bajarish muddatlari bunday vaziyatlar ta'sir etishi vaqtiga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

## 10. Qo'shimcha shartlar.

10.1. Bajaruvchi Loyiha-smeta xujjatlari ishlarini muddatidan oldin bajarganida, Buyurtmachi uni SHartnomaning 4-bandiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

10.2. Bajaruvchi Shartnoma shartlarini bajarish uchun, Shartnomada belgilangan muddatlarga rioya qilinishini inobatga olgan holda hamda Buyurtmachi bilan kelishilgan xolda, yordamchi tashkilotlarni jalb qilishi mumkin.

10.3. To'langan penya taraflarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.4. Shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va har ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega.

10.5. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi.

10.6. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

1-ilova - Shartnoma bahosining kelishuvi bayonnomasi;

2-ilova - Loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqishni bajarish va moliyalashtirish jadvali.

## 10. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

**"Buyurtmachi"**

**Obodonlashtirish boshkarmasi**
Yangibozor k. A.Tukay kuchasi 5 uy
Shx/r: 401722860272397045204110007
STIR: 200443796
OKONX: 90211
Yukori Chirchik tuman buyicha Gaznachilik bulimi
X/r: 23402000300100001010
Markaziy bank Toshkent shaxar BBXKKM
STIR: 201122919
MFO: 00014 Tel. 98 31-494
**Raxbar** ____________

**S.Yakubxodjaev**

**"Bajaruvchi"**

**"EXCELLENT ROAD PROJECT" MCHJ**
Toshkent shaxri, Mirzo Ulug'bek tumani
TTZ-1 choyhona majmuasi
Tel./faks: (+998)
Mob.: (+99899) 871-20-30
H/r: 20208000805326287001
АТИБ "ИПОТЕКА БАНК"
MFO: 00423 INN: 308065474 OKED:
QQS kodi:
**Raxbar** ____________
**Tilaxodjaev.Sh.**

2022 yil «12»_May__ dagi
2-sonli shartnomaga 1 - ilova

**SHartnoma bahosini kelishuvi**

**B A YO N N O M A S I**

Biz, kuyida imzo chekuvchilar: **Yuqori Chichiq tumani Toshtugizoq MFY Bogiston va Barkamol ko‘chalarini ko‘chalarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha 2022 yil “12”May dag 2-so**nli shartnoma bahosi **QQS bilan 18800000 (Un sakkiz million sakkiz yuz ming )** so‘mni tashkil qiladi.

Ushbu bayonnoma Buyurtmachi va Bajaruvchi o‘rtasida o‘zaro hisob–kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

**“Buyurtmachi”** **“Bajaruvchi”**

2022_ yil "16" May_dagi
2 -sonli shartnomaga
2 -ilova

Yuqori Chichiq tumani Toshtugizoq mfy Bogiston va Barkamol ko‘chalarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish

## BAJARISH VA MOLIYALASHTIRISH JADVALI

ming so‘m

| № | Bajariladigan ishlarning nomi | Qiymati | Bajarish | | Moliyalashtirish muddati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | muddati | qiymati | 2022 yil |
| | Avans miqdori | 5640000 | 5 | 18800000 | 2022yil |
| 1 | Loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish | 18800000 | | | |
| | **Jami:** | **18800000** | | | |

**Buyurtmachi** ____________ **Bajaruvchi** ____________

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: OW41608568840

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO`GRISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma
2. Loyihaning nomi:
   "Buyurtmachi" Yuqorichirchiq tumani obodonlashtirish boshqarmasi ва "Bajaruvchi" Toshkent Shahar M.Ulugbek tumani TTZ choyhona majmuasida joylashgan "EXCELLENT ROAD PROJECT" MCHJ o`rtasida loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish maqsadidagi shartnoma.

   Ushbu loyihasi O`zbekiston Respublikasi "Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to`g`risida"gi qonunining talablariga mos keladi.

   Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

**Yuridik xizmat ko`rsatish markazi**
**Bosh yuriskonsult** **R.Tuxtaev**
17-may 2022-yil

## Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 80597 на приобретение ОПЕН БЮДЖЕТ ТОШТУГИЗОК МФЙ ... МАХАЛЛАСИ 2022 ЙИЛ СМЕТА ЭКСПИРТИЗА ХУЖАТЛАРИНИ ТАЁРЛАШ

Способ проведения электронный

Дата 12.05.2022

Время рассмотрения 12.05.2022 17:43

Конкурсная комиссия Юкори Чирчик тумани ободонлаштириш булими, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | YAKUBXODJAYEV SAIDUMAR SAIDAKBAROVICH | БОШЛИК | ОБОДОНЛАШТИРИШ БОШКАРМАСИ |
| **Секретарь комиссии** | RIZAMATOVA ZULAYXA XUSNIDINOVNA | иктисодчи | ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | NISHONBOYEV ABRORJON ANVAR O‘G‘LI | бош мухандист | ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | TO'LAGANOV BEXZOD RAVSHANBEK O'G'LI | булим бошлиги | ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | TO‘LAYEV ZOKIR SAMARIDDINOVICH | булим бошлиги | ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | TURABOYEV ABBOS IFTIXOR O‘G‘LI | техник | ободонлаштириш бошкармаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 12.05.2022 года № лота 80597.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по разработке проектно-сметных работ** |
|---|---|
| Подробное описание | Юкори Чирчик тумани Тоштугизок мфй кучасида асфалтлаш учун смета экспиртиза хужатлари |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 24 750 000.00 |
| Стартовая сумма | 24 750 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 . Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланадиган моддий-техник воситалари рўйхати, 5-шакл

Тип: Бинарное значение

Описание: 1. Компьютер (ноутбук) техникалари 5 дона ва ундан кўп 2. Сметаларни ҳисоблаб чиқишда қўллаш учун дастурий комплекс (ABC4-uz) 1 та 3. Плоттер 1 та 4. Принтер ва нусха кўпайтириш техникаси 2 та ва ундан кўп 5. Ўлчов асбоблари (шагомер, метр) 1 та 6. Автомобиль 1 та

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО EXCELLENT ROAD PROJECT | 26 | 1 | 22 | Экспертная | | |
| ООО FREIGHT SERVICES | 26 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 26 | 1 | 16 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 26 | 1 | 20 | Экспертная | | |

Критерий №2 II. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчисининг молиявий аҳволи. 2 ва 4-шакллар

Тип: Бинарное значение

Описание: 1. Асосий воситаларнинг қолдиқ қиймати 100 млн. сўм ва ундан кўп. 2. Муддати ўтган кредиторлик қарздорлиги мавжуд эмаслиги. 3. Охирги йилда 100 млн. сўм ва ундан юқори фойдаси (солиқ тўлангунга қадар) мавжудлиги. 5 4. Иш ҳақи фонди 100 млн. Сўм ва ундан юқори 5. Тўловга қодирлилик ёки қоплаш коэффициенти 1,25 ва ундан кўп. 6. Ўз айланма маблағлари билан таъминланганлик коэффициенти 0,2 ва ундан кўп. 7. Объектнинг буюртмачи белгилаган бошланғич нархининг 20% миқдоридаги айланма маблағлар мавжудлиги (хизмат қилувчи банк томонидан тасдиқланган айланма маблағлари мавжудлиги тўғрисидаги м

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО EXCELLENT ROAD PROJECT | 34 | 1 | 30 | Экспертная | | |
| ООО FREIGHT SERVICES | 34 | 1 | 28 | Экспертная | | |
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 34 | 1 | 30 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 34 | 1 | 30 | Экспертная | | |

Критерий №3 . Лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқиладиган қурилиш (таъмирлаш) объектини кўздан кечирганлиги тўғрисида маълумотнома, 6-шакл

Тип: Бинарное значение

Описание: 1. Лойиҳа-смета ҳужжатлари ишлаб чиқиладиган қурилиш (таъмирлаш) объектини кўрганлиги ва ўрганиб чиққанлиги

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ООО EXCELLENT ROAD PROJECT | 2 | 1 | 2 | Экспертная | | |
| ООО FREIGHT SERVICES | 2 | 1 | 2 | Экспертная | | |
| "MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati | 2 | 1 | 2 | Экспертная | | |
| LUCKY REBIRTH | 2 | 1 | 2 | Экспертная | | |

Критерий №4 Энг яхши таклифларни танлашдаги объектга ўхшаш объектларда охирги 3 йиллик иш тажрибаси 3-шакл

Тип: Бинарное значение

Описание: 1. Энг яхши таклифларни танлашдаги ўхшаш ишларни ўз кучи билан бажариш: йилига буюртмачи бошланғич нархининг 50% сўмлик ва ундан кўп. (ҳар бир йил билан баҳоланади). 2. Энг яхши таклифларни танлаш савдосига ўхшаш профил бўйича охирги йили ўз кучи билан бажариш.

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO EXCELLENT ROAD PROJECT** | 19 | 1 | 19 | Экспертная | | |
| **OOO FREIGHT SERVICES** | 19 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| **"MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 19 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| **LUCKY REBIRTH** | 19 | 1 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №5 I. Энг яхши таклифларни танлаш иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар. 1-шакл

Тип: Бинарное значение

Описание: 1. Иш стажи 3 йилдан кам бўлмаган олий маълумотли мажбурий раҳбарлардан 1 киши мавжудлиги. 2. 3 йил иш стажига эга 2 кишидан кам бўлмаган дипломга эга мухандис ва архитектор ходимларни мавжудлиги. 3 3. Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган дипломли 1 киши лойиҳа бош мухандисини мавжудлиги. 4. Иш стажи 5 йилдан кам бўлмаган дипломли 1 киши лойиҳа бош архитекторини мавжудлиги. 5. Доимий равишда ишловчи 2 тадан кам бўлмаган малакали ишчи ходимлар (мутахассислар) мавжудлиги. 6. Ходимларнинг ўртача сони 7 кишидан кам бўлмаган.

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **OOO EXCELLENT ROAD PROJECT** | 19 | 1 | 17 | Экспертная | | |
| **OOO FREIGHT SERVICES** | 19 | 1 | 15 | Экспертная | | |
| **"MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 19 | 1 | 10 | Экспертная | | |
| **LUCKY REBIRTH** | 19 | 1 | 10 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|
| **"MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 24 750 000.00 | 24 000 000.00 | 10.05.2022 13:38:45 | 20.11 |
| **OOO FREIGHT SERVICES** | 24 750 000.00 | 16 087 500.00 | 10.05.2022 11:38:58 | 30.00 |
| **LUCKY REBIRTH** | 24 750 000.00 | 18 000 000.00 | 11.05.2022 09:43:48 | 26.81 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **OOO EXCELLENT ROAD PROJECT** | 24 750 000.00 | 18 800 000.00 | 03.05.2022 13:28:36 | 25.67 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **"MODERN ROAD PROJECT" mas`uliyati cheklangan jamiyati** | 51.1 | 20.11 | 71.21 |
| **OOO FREIGHT SERVICES** | 49 | 30 | 79 |
| **LUCKY REBIRTH** | 50.4 | 26.81 | 77.21 |
| **OOO EXCELLENT ROAD PROJECT** | 63 | 25.67 | 88.67 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 80597 от 12.05.2022 года на приобретение ОПЕН БЮДЖЕТ БУЙИЧА МФЙ ТОШТОУГИЗОК 2022 ЙИЛ СМЕТА ЭКСПИРТИЗА ХУЖАТЛАРИНИ ТАЁРЛАШ определила победителем:

OOO EXCELLENT ROAD PROJECT
308065474

и резервный исполнитель: OOO FREIGHT SERVICES (302335775)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | TO'LAGANOV BEXZOD RAVSHANBEK O'G'LI | Согласен | |
| **Председатель комиссии** | YAKUBXODJAYEV SAIDUMAR SAIDAKBAROVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | TO'LAYEV ZOKIR SAMARIDDINOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | NISHONBOYEV ABRORJON ANVAR O'G'LI | Согласен | |
| **Член комиссии** | TURABOYEV ABBOS IFTIXOR O'G'LI | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

3840192

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"EXCELLENT ROAD PROJECT" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"EXCELLENT ROAD PROJECT" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

11.01.2021 934064 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 308065474

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, TTZ-1 CHOYXONA MAJMUASI HUDUDIDA,

Guvohnoma: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



4-шу

my.gov.uz
Ягона Интерактив
Давлат Хизматлари
Портали

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш вазирлиги

№ 8349-8360-d088-be71-5d34-0617-7929
Ҳужжат яратилинган сана: 2021-06-21
Ариза рақами: 32490833

Ҳужжат берилган: "EXCELLENT ROAD PROJECT" mas'uliyati cheklangan jamiyati
Қабул қилувчининг идентификация рақами: 308065474

## Архитектура-шаҳарсозлик ҳужжатларини ишлаб чиқиш фаолиятини амалга ошириш учун ЛИЦЕНЗИЯ

"EXCELLENT ROAD PROJECT" mas'uliyati cheklangan jamiyati га объектларнинг мураккаблик тоифалари классификатори бўйича I тоифадаги объектлар учун қуйидаги: Умумий фойдаланиладиган автомобиль йўлларини қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлаш учун лойиҳа-смета ҳужжатларини ишлаб чиқиш. фаолият тур(-лар)и билан шуғулланишга лицензия берилди.

Лицензия берилган сана: 21-06-2021 йил

Лицензия рақами: АЛ-001847

Солиқ тўловчининг идентификация рақами (СТИР): 308065474

Юридик шахснинг почта манзили: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani TTZ-1 MAVZESI, CHOYXONA MAJMUASI HUDUDIDA

Лицензия амал қилиш муддати чекланмаган.

НОСИРОВ ОБИДЖОН ШАРОФОВИЧ

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали тўғрисидаги низомга мувофиқ шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси ҳисобланади. Электрон ҳужжатнинг нусхасида кўрсатилган маълумотлар тўғрилигини текшириш учун repo.gov.uz веб-сайтига ўтинг ва электрон ҳужжатнинг ноёб рақамини киритинг ёки мобил телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг. Диққат! Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ электрон ҳужжатлардаги маълумотлар қонуний ҳисобланади. Давлат органларига Ягона порталда шакллантирилган электрон ҳужжатларнинг нусхаларини қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланган.

5332